Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

OG‘ZAKI NUTQ VA UNING XUSUSIYATLARI

Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna, FarPI, o‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi assistenti,

Adxamjonova Muxlisa Umidjon qizi, FarPI, KLT fakulteti

74-23 TT guruhi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda og‘zaki nutqning o‘ziga xosligi xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari yoritilgan.

Kalit so`zlar: nutqning kommunikativ sifatlari, og‘zaki nutq, psixolingvistika, nutqning aniqligi, nutqning boyligi, nutqning sofligi.

Respublikamizning mustaqillikka erishuvi tilimizning jamiyat a’zolari o‘rtasida qo‘llanish doirasini kengaytirdi, til va tilshunoslik fanida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bundan tashqari, o‘zbek tilining qo‘llanilish doirasi sezilarli darajada kengaydi. Uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanmalar, yangi lug‘atlar yaratilganligi buning isbotidir. Tilshunoslikda pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, gender tilshunoslik kabi turli-tuman sohalarga qiziqish kuchayganligi va bu sohalarda ham ko‘zga ko‘rinarli ishlarning amalga oshirilayotganligini ham sezish mumkin. Psixolingvistika sohasi ham yuqoridagi yangi sohalar singari ko‘plab tilshunoslarning e’tiborini tortib kelmoqda.

Har bir soha vakillari qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, unda notiqlik san’ati, nutq madaniyati rivojlanishi kerak, shuning uchun nutq o‘stirish, jamoa oldida o‘z fikrini bayon qila olish zarur hisoblangani uchun psixololingvistika sohasi muhimdir. Og‘zaki yoki yozma nutqning o‘sishi doimiy talab darajasidadir. Chunki, har bir insonning takrorlanmaydigan muloqot me’yorlari, so‘z va iboralar mavjudki, bularni bilmay turib, ularning fikrini, o‘y-kechinmalarini anglash qiyin, muloqotga kirishish qiyin bo‘ladi.

Tilshunoslik va psixologiya o‘rtasidagi aloqalar ayniqsa yaqin bo‘lib, bu XIX asrda tilshunoslikka psixologik usullar va g‘oyalarning kiritilishiga sabab bo‘ldi. Tilshunoslik fanida psixologik yo`nalish shunday paydo bo`lgan. XX asrning 50-yillarida tilshunoslik bilan chegaradosh yangi fan - psixolingvistika shakllandi. Jahon tilshunosligida quyidagi olimlar psixolingvistika sohasi rivojiga o‘z hissalarini qo‘shgan: Ch.Osgud, J.Kerroll, T.Sibeok. Keyingi avlod vakillari sifatida esa quyidagilar tilga olinadi: J.Piaje, I.Pavlov, P.Brok, N.Jinkin, L.Zankov.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham psixolingvistika sohasi bo‘yicha bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, I.Azimova, D.Lutfullayeva va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Og‘zaki nutq muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Og`zaki muloqot so`zlovchi gapirib turgan lahzadagina mavjud bo`ladi, so`zlash jarayoni tugashi bilan og`zaki muloqot ham tugaydi. Lekin muloqot ta’sirida berilgan ma’lumot, axborot tinglovchi

Published: 10.11.2023

Cite this article: Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna, Adxamjonova Muxlisa Umidjon qizi (2023). Og‘zaki nutq va uning xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/415

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

ongida uzoq vaqtgacha saqlanishi, uning xulqiga, qalbiga ta’sir etishi tabiiy. Og‘zaki nutq xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, og‘zaki nutq kommunikativ jarayon bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun har kim ifodalayotgan fikriga mos so‘zni, gapni tanlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Og‘zaki muloqot tayyorgarliksiz, ya’ni favqulodda yuzaga keladi,shuning uchun kishi o‘z nutqida voqeylikdan uzoqroq so‘zni ishlatib yuborishi ham mumkin. Natijada aytilgan nutq nishonga borib tegmaydi, ko‘zlangan maqsad amalga oshmay qoladi. Og‘zaki muloqot jarayonida odam bir vaqtning o‘zida fikrlaydi hamda so‘zlaydi, Shuning uchun voqeylikka mos so‘zlarni tanlashga deyarli imkoniyat bo‘lmay qoladi. “Yashin tezligida” javob qaytarish talab qilinayotgan paytda fikrni ifodalay olmaydigan so‘zlarni ishlatib yuborish oqibatida ko‘zlangan maqsad to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Bunda tinglovchi ham so‘zlovchi ham zarar ko‘radi.

Ikkinchidan, bunda xotiraning roli katta. Agar xotira sust bo‘lsa, og‘zaki muloqotda gap tuzilishi, so‘z birikmalari o‘zaro mantiqan va grammatik jihatdan bog‘lanmay qoladi.

Uchinchidan, u qanday shaklda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha tinglovchiga etib boradi, tahrir imkoniyatidan mahrum.

To‘rtinchidan, og‘zaki nutq so‘z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag‘al bo‘ladi. Unda bir xil so‘zlar bir shakllar, bir qadar ko‘proq takrorlanadi, qaytariqlar ko‘p uchraydi, nutqning tejamkor bo‘lishi uchun ba’zi gap bo‘laklari tushiriladi. To‘liqsiz gaplar ko‘p qo‘llanadi.

Beshinchidan, og‘zaki nutqda so‘zlovchining faol nutqiy harakati pauza (to‘xtam), ohang, urg‘u, unlilarning cho‘zib talaffuz etilishi; turli xil jest (imo-ishora)lar, mimika (qiyofaning o‘zgarishi)lar fikrning tinglovchiga etib borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, og‘zaki nutqda odatda muloqot uchun eng zarur narsalargina zuhur etiladi. Bu bir tomondan vaqt iqtisodi bilan ikkinchi tomondan, nutq kuchini tejash bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra unda uzundan-uzoq kirish keng izohlar kam uchraydi.

Og‘zaki muloqot ma’lumot yoki xabar og‘zaki so‘zlar orqali almashilganda sodir bo`ladi. Bu ham yuzma-yuz, ham mexanik uskunalar orqali bajarilishi mumkin. Ikkala holatda ham bu tashkilotda muhim ahamiyatga ega. Tashkilotda yuzma-yuz muloqot konferensiya, guruh muhokama, shaxsiy suhbat va shu kabilar orqali bajarilishi mumkin. Mexanik uskunalar zamonaviy biznes muloqot jarayonida muhim rol o‘ynaydi va o‘z ichiga signallar, telefon, mobil telefoni, elektron pochta, faks va hokazolarni oladi.

Nutq ham sof, jargon, dialektizm va professionallikdan holi hisoblanadi. Ro‘yxatda keltirilgan so‘zlardan foydalanish shakllari bunday lug‘atdan foydalanadigan odamlarning cheklangan doirasini taklif qiladi. Binobarin, ushbu doiraga kirmagan muloqot ishtirokchilari so‘zlardan bunday o‘ziga xos foydalanishga ega bo‘lmasligi mumkin. Agar murojaat etuvchi dialektizmlar, jargon yoki

professional lug‘atdan foydalanish mumkin deb hisoblasa, ularning bayonotni tushunishi qiyin bo‘ladi. Biz shuni ta’kidlaymizki, ushbu lug‘atning bayonotda mavjudligi ham nutq aloqasining dastlabki uch bosqichiga bog‘liq.

Nutqning boyligi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zlovchi (yozuvchi)ning lingvistik shaxsiga bog‘liq. Mavjud fikrni shakllantirishning iloji yo‘qligi kichik leksikaning natijasidir - bitta shaxsning so‘zlari to‘plami. Boylik lug‘at odamga nutqini rang-barang qilish, qabul qiluvchi uchun bayonotni idrok etishni ortiqcha yuklaydigan keraksiz takrorlashlardan qochish imkonini beradi. Olmoshlarni, sinonimlarni ishlatish qobiliyati, ularning ma’nolarining barcha nuanslarini hisobga olgan holda, matnni tushunarli, aniq, qulay qiladi. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchining so‘z boyligi qanchalik boy bo‘lsa, uning bayonotini adekvat idrok etish va talqin qilish imkoniyati shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -T.: «Akademnashr», 2020.

2. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyalarining psixolingvistik tadqiqi:filol.fan.nom...dis.-T,2008.

3. Rafiyev A. Mahmudov N. Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish.- Toshkent, 2013.

4. Sh. Usmonova. Psixolingvistika. Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ma’ruzalar kursi.- T, 2014.